Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320763

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

RAQAMLI IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi
Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi
muyassarismoilova01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni, uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlaridagi ahamiyati va raqamli infratuzilmaning shakllantirilishi masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, texnologiyalarni rivojlantirish, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, texnologik taraqqiyot, raqamli strategiyalar

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida raqamli iqtisodiyot dunyo mamlakatlari iqtisodiy tizimlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) tahlilining iqtisodiyotga integratsiyasi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu jarayon faqatgina iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki resurslardan oqilona foydalanish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Bu esa texnologik innovatsiyalarning amaliyotga joriy qilinishini, davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyat bo‘lib, bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya’ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o‘tishga asoslanadi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels tomonidan kiritilgan. Bu borada u o‘zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasini chop etgan. Hozirgi vaqtga kelib, raqamli iqtisodiyot nazariyasi to‘laligicha hali shakllanmagan va ko‘pchilik iqtisodchilar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon “Yangi raqamli iqtisodiyoti” turli xil atamalar bilan nomlanadi. Masalan, “Postindustrial iqtisodiyot” (D.Bell), “Axborotlashgan iqtisodiyot” (O.Toffler), “Megaiqtisodiyot” (V.Kuvaldin), “Axborot va aloqaga asoslangan iqtisodiyot” (I.Niiniluto), “Texnoiqtisodiyot yoki raqamli iqtisodiyot” (B.Geyts), “Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot” (D.Tapskott).

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat ob’ektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni o‘stirish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi . Davlatning o‘z fuqarolari uchun elektron

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ismoilova Muyassar Ro‘ziqul qizi (2024). Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish asoslari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320763
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

xizmatlarni ko‘rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi bo‘lib hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma’lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1 200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog‘iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha 237 ta ob’ektda magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas .

Blokcheyn texnologiyalari tomonlarning hech qanday vositachisiz bitimlarni xavfsiz, ishonchli amalga oshirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Uni ko‘pchilik kriptovalyuta texnologiyasi sifatida bilsa-da, aslida blokcheyndan raqamli identifikatsiya, egalik va mulkiy huquqlar ximoyasi, to‘lov tizimi sifatida foydalanish mumkin. Ethereum kabi blokcheyn bazasida ishlaydigan ochiq manbali platformalar an’anaviy huquqiy jarayonlarsiz har qanday aktivlar bo‘yicha bitimlar tuzish, bank xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beradi.

Hozirda jahonning turli mamlakatlarida moliyaviy texnologiyalar, yer resurslarini boshqarish, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarida blokcheyn tizimidan foydalaniladi. Blokcheyn tizimi har qanday sohaning shaffoflik darajasini oshiradi, korrupsiya holatlarining kamayishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarining imkoniyatlari nihoyatda istiqbolli hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y berayotgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” . Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Qolaversa, bu korrupsiyaga qarshi samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda odamlar turmushini yaxshilash demakdir.

Raqamli iqtisodiyot va texnologiyalarni rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlarning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri, texnologik taraqqiyotning ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyasi va innovatsion yondashuvlar o‘rganildi. Shuningdek, xalqaro tajribadan kelib chiqib, raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

5. Lapidus L.V. Raqamli iqtisodiyot. - M.:, Infra-M, 2019 yil.

2. “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor
Tulyakov nutqidan. 2020.
6. Yuldasheva, G., & Shermatova, H. (2022). Ta’limda innovatsion texnologiyalarning qo ‘llanilish istiqbollari. Science and innovation, 1(B8), 5-9.
7. Yuldasheva, G. I. (2021). Axborot texnologiyalari-ta’lim sifati kafolatidir. Электронное научно-практическое периодическое издание
«Экономика и социум, (4), 83.
5. Yuldasheva, G. I. (2022). Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, Science, Education: Topical Issues, Achievements And Innovations,(5), 36-38.
6. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2022). Factors of informatization of the process of primary education.“. Электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум, 12(91), 689-692.
7. Yuldasheva, G., & Yo‘ldosheva, M. (2022, September). Axborot xavfsizligiga tahdidlar va ularning oldini olish omillari. In International scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 1, No. 2, pp. 231-236).

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Sultonova Zebiniso Sharipovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti 1-bosqich magistranti
narzullotfi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Unda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning dolzarbligi, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga qo‘shadigan hissasi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tezisda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish yo‘lidagi mavjud imkoniyatlar, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam va qo‘llab-quvvatlov mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy foydalarini oshirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik, tadbirkor, ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ayollar huquqlari,iqtisodiy barqarorlik, gender tengligi, oilaviy tadbirkorlik, ish o‘rinlari yaratish, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy islohotlar.

O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash masalasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ayollar tadbirkorligi nafaqat oilalarning farovonligini oshiradi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish orqali nafaqat iqtisodiyotning turli sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, balki ayollarning jamiyatdagi mavqeini kuchaytirish imkoniyati ham oshadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, ayollar uchun maxsus grant dasturlari, imtiyozli kreditlar va o‘quv treninglari tashkil etilmoqda. Ushbu dasturlar ayollarga o‘z bizneslarini boshlash yoki kengaytirish imkoniyatini beradi.